



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



EKOLOGIYA VA BARQAROR TARAQQIYOT: SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING AHAMIYATI

X.Xujamatova

Qo'qon davlat universiteti

Milliy g'oya va huquq kafedresi stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologiya va barqaror taraqqiyot tushunchalari, suv resurslaridan oqilona foydalanishning ahamiyati, suv tanqisligi muammolari hamda O'zbekistonda suv resurslarini muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni asrab-avaylash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, barqaror taraqqiyot, suv resurslari, ekologik xavfsizlik, suv tanqisligi, atrof-muhit, tabiiy resurslar, suvni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi.

ECOLOGICAL SUSTAINABILITY AND THE IMPORTANCE OF RATIONAL USE OF WATER RESOURCES

X.Xujamatova

Kokand State University Department of National Idea and Law
trainee teacher

Abstract: This article discusses the concepts of ecology and sustainable development, the importance of rational use of water resources, water scarcity problems, and reforms being implemented in Uzbekistan to protect water resources. It also highlights issues related to water conservation, environmental safety, and preservation of natural resources for future generations.

Keywords: ecology, sustainable development, water resources, environmental safety, water scarcity, climate change, natural resources, water protection.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda ekologik muammolar tobora kuchayib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, cho'llanish va suv resurslarining kamayishi insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, suv resurslarining cheklanganligi va ulardan samarasiz foydalanish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Suv – inson hayoti, qishloq xo'jaligi, sanoat va butun ekotizimning asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli suv resurslaridan oqilona foydalanish barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham toza suv va sanitariya masalalari alohida yo'nalish sifatida belgilangan.

O'zbekistonda ham suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, Orol dengizi fojiasi, iqlim

o'zgarishi va aholi sonining o'sishi suv resurslariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu bois suvdan tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik madaniyatni oshirish va tabiatni muhofaza qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, barcha tarmoq va sohalarida suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekologiya va suv resurslaridan foydalanish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, ekologiya sohasida O.Mo'minov, N. Nazarov, Sh. Qurbonov kabi olimlar atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini tadqiq etganlar.

Suv resurslarini huquqiy muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga oid ilmiy tadqiqotlarda suvdan foydalanishning huquqiy asoslari, suv siyosati va xalqaro ekologik standartlar tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy olimlar tomonidan iqlim o'zgarishi va suv tanqisligining global oqibatlari bo'yicha muhim ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonda qabul qilingan 2025 yil 30 iyuldagi "Suv kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonun, «Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda davlat dasturlari suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlab bermoqda.

ASOSIY QISM

Ekologiya – inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Barqaror taraqqiyot esa jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlod imkoniyatlariga zarar yetkazmaslikni anglatadi.

Suv resurslaridan noo'rin foydalanish quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- ichimlik suvi tanqisligi;
- yerlarning sho'rlanishi;
- ekologik muvozanatning buzilishi;
- aholi salomatligiga zarar;
- qishloq xo'jaligi hosildorligining pasayishi.

Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari cheklangan bo'lib, ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, tomchilatib sug'orish tizimlarini kengaytirish va kanallarda suv yo'qotilishini kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Suvni boshqarish, yuritish, undan foydalanish sohasi hamda suv xo'jaligi obyektlari to'liq raqamlashtirilmagan. Ichimlik suvidan boshqa ehtiyojlar uchun foydalanish keng tarqalgan. Bundan tashqari, suvdan foydalanish madaniyati ham yetarli darajada emas. Suvni asrash va undan oqilona foydalanish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari sustligi tufayli jon boshiga suv sarfi miqdori ortiqchaligicha qolmoqda. Shaharlar va ayrim yirik sanoat korxonalarining tozalagich inshootlari suvni sifatli tozalash texnologiyalariga ega emas. Bozorlar, ko'chalar, xizmat

ko'rsatish maskanlari va boshqa aholi gavjum joylarda o'rnatilgan suv tarmoqlari nuqtalarida oddiy qoidalarga amal qilinmaganligi natijasida suvning behuda isrof bo'lishi holatlari kuzatilmoqda. Tahlillarga ko'ra, 2030 yilga borib mamlakatimizda 7 milliard kub metr suv taqchilligi kuzatilishi hamda O'zbekiston suv tanqis bo'lgan 33 davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli bor.

Yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanish, suvni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, sohaning qonunchilik bazasini mustahkamlashga oid masalalarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi natijasida muzliklar maydoni qisqarib bormoqda. Bu esa kelajakda suv resurslari yanada kamayishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bois suv resurslarini muhofaza qilish nafaqat milliy, balki global ahamiyatga ega vazifadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, suv resurslaridan oqilona foydalanish barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va suvni tejash orqali kelajak avlod uchun sog'lom atrof-muhit yaratish mumkin.

Demak, o'z-o'zidan asosiy maqsad ana shu manbalarni to'liq nazoratga olish, ulardan ishlab chiqarilayotgan toza suv hajmlarini ko'paytirish, eng muhimi, suv iste'molida yuzaga kelgan tartibsizlik va isrofni yo'q qilishdir.

Bundan tashqari, suv manbalari O'zbekistondagi ko'plab ekotizimlar, jumladan, daryolar, ko'llar va suv omborlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Suv resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va ularni boshqarish biologik xilma-xillikni saqlashga, suv sifatini yaxshilashga olib keladi va O'zbekistonda ekologik siyosatni takomillashtirish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va aholining ekologik ongini yuksaltirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Zero, tabiatni asrash – inson hayotini asrash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni.
3. «Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. – Toshkent, 2024.
4. Barqaror rivojlanish milliy maqsadlari to'g'risidagi materiallar.
5. N. Nazarov. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent, 2020.
6. Orol dengizi muammolari va ekologik xavfsizlik masalalari bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.